

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi iqtidorli o'quvchilari institutimizga tashrif buyurishdi

Bu safar o'quvchilar Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida. Poytaxtimiz Toshkent shahrida joylashgan Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi iqtidorli o'quvchilari institutimizga tashrif buyurishdi. Tashrif davomida institutimiz binolari, yaratilgan sharoitlar, axborot-resurs markazi, auditoriyalar, jamoat tashkilotlari xonalari bilan yaqindan tanishishdi. O'quvchilar institut haqida savollar berib, o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob olishdi. Shundan so'ng, o'quvchilar institutimizda tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirga taklif etildi. Maktab direktori bilan birga tadbirga ishtirok etishib, o'zlarining ijodiy chiqishlarini namoyish etishdi. Hamkorlikdagi faoliyat davom ettiriladi. Yoshlar-Kelajak bunyodkoridir. Eslatib o'tamiz, avvalroq institut rahbariyati hamda fakultet rahbariyatlari, faol talabalar bilan birgalikda ushbu yangi bunyod etilgan maktab sharoitlari, o'quvchilar bilan tanishish maqsadida tashrif buyurishgan edi.



TIQXMMI matbuot xizmati